

Chug'urchuqning ekologiyasiga doir materiallar
Zohidova Iroda.

Mutaxassislik: Biologiya
(2- bosqich)

Annotatsiya:

Maqolada chug'urchuqning ekologiyasiga doir, ya'ni chug'urchuqning uchib kelish muddatlari, uya qurishi, tuxum qo'yish va bosish muddatlari, hamda polaponlarini ochib chiqishi va ularning oziqasi tarkibi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Chug'urchuq – *Sturnus vulgaris* L. O'zbekistonda keng tarqalgan ommaviy qushlardan biridir. U Qashqadaryo, Surxondaryo va Buxoroda kam sonli bo'lib, Farg'ona vodiysi, Toshkent va Samarqandda ko'p uchraydi. Chug'urchuq musichadan sal kichikroq keladigan, metaldek yarqirab turadigan, qora rangli qush bo'lib, jussasi baquvvat, tumshug'i taxminan boshining uzunligiga teng, baquvvat, o'tkirlashgan va bir oz pastga egilgan bo'ladi.

Chug'urchuqning bahorgi migrasiyasi davri qishning qanday kelganligiga bog'liq. U O'zbekistonda fevral oyining oxiri mart oyining boshlarida uchib keladi.

D.U.Kashkarov va R.N. Puzankovlarning (1974) kuzatishlariga ko'ra Farg'ona vodiysida chug'urchuqlar mart oyining ikkinchi o'n kunligida uchib kelishgan.

X.S.Salixboyev va Ostapenkoning ma'lumotlariga ko'ra chug'urchuqlar ko'proq janubiy qismlarida uya quradi. O'zbekistonning tog'oldi, tog'li rayonlarida va boshqa ko'plab joylarida uchraydi. Odatda ular alohida juft bo'lib uyalaydi. O'zbekistonda kamdan-kam hollarda koloniya bo'lib uyalaydi. X.S.Salixboyev Farg'ona vodiysida 20 juftga yaqin chug'urchuqlarning bir – biriga yaqin joyda uya qurganligini kuzatdi.[1]

Ularning uyalari har xil balandlikda bo'lib, 1,2 – 8 metrgachabo'lgan. Asosan yerdan 3 – 5 metr balandlikda bo'lgan. Uchib kelgan chug'urchuqlar juft- juft bo'lib, kichik koloniya hosil qilib joylashishadi va uya qurish uchun qulay joy izlashga tushishadi. Chug'urchuqning yashash joylari daraxtzorlari bo'lgan shaharlar va qishloqlar hisoblanadi. U uya qurish uchun turli xil materiallar to'playdi. Bunda ular o'simliklarning poyasi, ildizlaridan, uy hayvonlarining junidan parlardan foydalanishadi. Uya qurishda erkak va urg'ochi chug'urchuqlar baravar ishtirok etishadi. Uyalari ko'pincha daraxtlarda joylashgan bo'ladi. Juda kamdan-kam hollarda chug'urchuqning uyalari qandaydir qurilmalarda – quvurlar, ustunlar, tarnovlarda va boshqa joylarda joylashgan bo'ladi.

D.U.Kashkarov va R.N. Puzankovlarning (1974) kuzatishlariga ko'ra maynalar, chumchuqlar, sassiqpopishaklar va chittaklar chug'urchuqlar bilan uya maydonlarini egallashda raqobatlashadi. Bunda chug'urchuqning asosiy raqobatchisi mayna bo'lib, u har doim bu kurashda g'olib bo'ladi. Mart oyining birinchi yarmida ko'pchilik chug'urchuqlar juftlashadi.

Samarqand shahri sharoitida oq akatsiya yoki boshqa daraxtlarda uya qurishlari mumkin. Odatda uylari yerdan 2-5 metr balandlikda, ayrimlari undan ham balandda bo'lishi mumkin. Uyasi ochiq, yumaloq shaklda bo'lib, uyaning chekkalari aniq, uya lotogi yassi bo'ladi.

Uya joyini erkak qush tanlaydi. Uya qurish joyi tanlanib bo'lgandan so'ng erkak qush uya qurish uchun material keltiradi. Uyaning asosi ko'proq qalinroq poyalardan, shoxchalardan qurilib, uning ustki qismlarida ancha ingichka shoxchalar joylashtiriladi. Chug'urchuqning uya qurish davomiyligi 6 – 7 kunni tashkil etadi. Chug'urchuqlar uya qurgandan so'ng, uning ichiga yumshoq materiallar qo'yadi. Bunda u parlardan, uy hayvonlarining junidan foydalanadi.

A.F.Kavsharning ma'lumotlariga ko'ra chug'urchuqlarning uya qurishi aprelning o'rtalariga nihoyasiga yetadi. Hamda ular uya qurgandan so'ng birdan yoki bir necha kundan so'ng tuxum qo'yishga kirishadi.

Bizning kuzatishlarimizga ko'ra chug'urchuq asosan odamlar yashaydigan punktlarga yaqin joylarda yoki bevosita shunday joylarda yashab, uyalarini asosan daraxtlarga quradi. Nazoratimiz ostidagi uya akatsiya daraxtida joylashgan bo'lib, uning yerdan balandligi 4,5 m, uyaning diametri 19,5 sm, uya lotogining chuqurligi 3,7 sm ni tashkil etdi (1-jadval).

1 -jadval

Chug'urchuqning uya o'lchamlari

Uyaning diametri, sm	Uya lotogining chuqurligi, sm	Uyaning yerdan balandligi, m	Uyaning Joylashgan o'rni
18,5	3,5	5,0	Akatsiya
19,0	3,8	4,8	Akatsiya

Chug'urchuqlar uya qurib bitkazilgandan so'ng ko'payishga kirishadi. O'zbekistonda chug'urchuqlar yilda ikki marta ko'payadi. Tog'li joylarda esa bir marta ko'payadi. Kavsharning ma'lumotiga ko'ra ularning tuxum qo'yish vaqti aprel oyining oxirgi o'n kunligiga va iyunning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Uya qurgandan so'ng birdan yoki bir necha kundan so'ng tuxum qo'yishga kirishadi. Ular tuxumlarni har kuni ertalab qo'yadi. X.S.Salixboyevning kuzatishlariga ko'ra chug'urchuq 4-6ta , kamdan –kam hollarda 4-7 tagacha tuxum qo'yadi. Bizning kuzatishlarimizda esa 3-7 tagacha tuxum qo'yadi.[2]

Tuxum qo'yish muddati 5 -7 kun bo'lib, bu tuxumlarning soniga bog'liq. Urg'ochi qush 4 -6 ta, ko'pincha 5 ta och – havorang, ko'kimtir tusli tuxumlarni qo'yadi. Tuxumlarining shakli ovalsimon bo'lib, po'chog'ida hech qanday dog'lari bo'lmaydi. Tuxum bosish so'nggi tuxum qo'ygandan keyin boshlanadi. Tuxumlarini 13 – 15 kun , ba'zan 10 – 12 kun erkak va urg'ochi qush navbatma – navbat bosadi. Bu jarayonda ko'proq urg'ochi chug'urchuqlar faol ishtirok etishadi va bu holat tuxum bosishning so'nggi kunlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Urg'ochisi tuxum bosib yotganda erkagi uya atroflarida bo'ladi va uya hududini begona qushlardan himoya qiladi.

Bogdanovning ma'lumotlariga ko'ra chug'urchuq tuxumlarining uzunligi o'rtacha 29 mm, eni 21 mm, og'irligi 6,7 grammni tashkil etadi. Tuxumlarining rangi och - havorang bo'lib shakli ovalsimon, uchi va poyonak qismi yaqqol ajralib turadi .[1]

Bizning kuzatishlarimiz natijasida chug'urchuq tuxumlarining uzunligi o'rtacha 28,7 mm, kengligi 21,1 mm, massasi esa 6,15gramm ekanligi aniqlandi.(2 - jadval)

2-jadval

Chug'urchuq tuxumlarining o'lchami

Tuxumlarning t/r	Uzunligi (mm)	Kengligi (mm)	Massasi (g)
Birinchituxum	28,6	21,1	6,1
Ikkinchituxum	29,2	21,2	6,5
Uchinchituxum	27,5	20,6	5,8
To'rtinchituxum	29,5	21,5	6,2
O'rtacha	28,7	21,1	6,15

Biz kuzatishlarimiz davomida shuni kuzatdikki, chug'urchuq asosan ertalab va kechqurun tuxumini bosib yotadi. Ertalab qush uyada o'tirib maksimal 50 daqiqa, minimal 20 daqiqa tuxum bossa, kechqurun bu ko'rsatgich maksimal 80 daqiqa, minimal 40 daqiqani tashkil etdi. Kuzatishlarimiz natijasida ertalab soat 6:00 dan kech soat 19:00 gacha jami 13 soat kuzatgan bo'lsak, shundan 11 soati davomida urg'ochi chug'urchuq uyada bo'ldi.

Chug'urchuqning urg'ochisi tuxum qo'ygandan qariyb ikki hafta o'tgandan keyin, tuxumdan yosh polaponlar chiqadi. Har bir polaponning tuxumdan chiqishi uchun 1 sutka vaqt sarflanadi. Tuxumdan chiqqan polaponlarning tanasi och - kulrang par bilan qoplangan bo'ladi. Parlarininguzunligi 9 - 15 mmni tashkil etadi. Endigina tuxumdan ochib chiqqan polaponlar boshqa polaponlardan farq qilmaydi.

Tuxumdan endigina chiqqan polaponlari zaif, ko'rish va eshitish teshiklari yopiq bo'ladi. Tanasi uzun, lekin unchalik qalin bo'lmagan och – kulrang tusli embrional pat bilan qoplangan bo'ladi . Embrional tishchasining rangi oq, tanasi pushtirang – qizg'ish, tirnog'i rangsiz bo'lib, tilida dog'lar bo'lmaydi. Polaponinig og'irligi 5,5 - 6 grammni tashkil etadi. Polaponlarning sezgi organlari yaxshi rivojlanmagan bo'lib, ular keyinchalik rivojlanib ketadi.

Polaponlar uchinchi kunda kelib har xil ovozlar chiqara boshladi. Beshinchi kunda quloq teshiklari, 6-8 kunda ko'zlari ochildi. 10 -11 kunda kontur patlari rivojlandi. 14 -16 kunda polaponlarning tanasidagi ko'plab embrional parlar to'kila boshlaydi, faqatgina yelka qismida parlar saqlanib qoladi. Chug'urchuq polaponlari 10 – sutkadan boshlab patlari tez o'sa boshlaydi

Polaponlarining og'irligi ikki hafta davomida ortadi. Keyinchalik esa bu jarayon sekinlashib ,vazni kamayib boradi. 20 - kunda uyani tark etadi. Uchishdan oldin birinchi qoquv patining uzunligi 61 – 61 mm gacha, ikkinchi qoquv patining uzunligi 36 – 37 mm gacha, rul patlarining uzunligi 39-46 mm gacha bo'ladi. Bu davrda sevkasining uzunligi 34 – 37 mm bo'ladi. Uydagi uchirma polaponlarining rangi xira, metall yarqirog'i bo'lmaydi.

Yosh qushlarda katta qushlarning rangiga hayotining birinchi kuzida erishadilar. Chug'urchuq rangining mavsumiy o'zgarishi tullashsiz amalga oshadi. Bu qishlash davrida kontur patlari uchlarining yemirilishi hisobidan amalga oshadi. Polaponlar mayning ikkinchi yarmida uyani tark etishadi.

Ota – ona chug'urchuqlar polaponlarini 10 – 14 kun mobaynida asosan hasharotlar bilan boqadi. Hasharotlardan, turli xil kapalaklar, qo'ng'izlar, chigirtkalar, pashshalarning qurtlari bilan boqadi. Voyaga yetgan chug'urchuqlar esa hasharotlardan tashqari mevalar bilan oziqlanadi. Jumladan, gilos, uzum, tut, olcha kabilar. Bu bilan ular qishloq xo'jaligiga zarar keltiradi. Bahorda tut pishishi arafasida ular tut mevasini yeb zarar keltiradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Богданов О.П. Животные Узбекистана. Ташкент, 1962. – 316 с.
2. Салихбаев Х.С. Богданов А.Н. «Фауна Узбекской ССР» Т.2. ч.4 Птицы. Ташкент, 1967 с.56 – 59.

Ilmiy rahbar:

dots., b.f.n. Jabborov A.R

Magistrantlarning XIV ilmiy konferensiyasi materiallari-2015